

SIYOSIY MADANIYATNING ZAMONAVIY KO'RINISHLARI

Sevara G'ayratovna Raximova

O'zbekiston davlat jahon tillari universiteti stajyor o'qituvchisi,

Bugungi kunda mamlakatimiz taraqqiyoti pillapoyasidan yangi-yangi cho'qqilar sari qadam qo'yib borar ekan ko'rib turganimizdek jamiyatdagi siyosiy madaniyat va uning tyrlari ko'payib bormoqda. Rivojlangan davlatlar siyosatshunoslari davlatning rivojlanishi ijtimoiy va siyosiy hayoti yaxshilanishi uchun xizmat qiladi. Biz yashayotgan zamon sur'atlari shiddat bilan tezlashib, oldimizga yana qancha muammo va mashaqqatlar paydo bo'lar ekan, tabiiyki ma'naviy hayotimiz ham anashu sinovlarda toblanib, yuksalib, jamiyatimiz millatimizning yorug' va sog'lom kelajagini ham qanday tahdid va to'fonlardan – davr o'zgarishi bilan ularning ko'rinishi va shakli o'zgarishiga qaramayotgan – bezavol saqlash va asrab qolishga qodir bo'lish darkor.

Yurtimiz qadimgi sharq qadimiy madaniyat o'chog'i va jahon sivilizatsiyasining beshigi deya bejjiz ta'riflanmagan. Vatanimiz sivilizatsiyasining sharq sivilizatsiyasi quchog'ida voyaga yetgani va uning qadriyatlarini o'ziga aks ettirganini, unga va butun dunyo madaniyatdiga ulkan ta'sir ko'rsatganini doimo esda tutush darkor. Ishonchimiz komilki, xalqimiz tarixining murakkab jarayonlarini irodasi chiniqib har qanday hujum va tazyiqlarga qaramasdan, ma'naviy olami kuchayib borayotgani bizni ko'rolmaydigan kuchlar ham bu haqiqatni tan olayotganini mamnuniyat bilan qayd etamiz. Chunki xalq – bamisoli ulug' va sharafli yo'ldan ilgarilab boryotgan ulkan karvon. Uni yo'ldan chalg'itishga urunuvchilar, payt poylab orqasidan hamla qiluvchilar hamisha bo'lgan, bundan keyin ham bo'lishi mumkin. Karvon bexatar bo'lmas degan gap bejjiz aytilmagan. Ammo xalq karvonini hech qanday kuch ortga qaytarolmaydi. Nega deganda, xalqning qalbida ne-ne ajdodlardan meros yengilmas kuch madaniy ma'naviyat bor.

Mustaqil vatanimiz oliy maqsad qilib olgan ozod va obod Vatan, erkin va farovon hayotni barkamol ezgu g'oyalarni hayotiy e'tiqodiga aylantirgan yetuk insonlargina bunyod eta oladi. Sgunday jarayonlarda siyosiy madaniyat borasida xalqimizning yetarlicha bilimga egaligi taqsiinga sazovordir. Bir so'z bilan aytganda har bir fuqaroning siyosiy madaniyat xususida yetarlicha bilim va ko'nikmaga ega bo'lishi davlat ravnaqiga ulkan xissasini qo'shaoladi deb aytaolamiz.

Siyosiy madaniyat xususida so'z borarekan bu jumla siyosatga qanday ta'sir qilishini tasvirlaydi. Har bir siyosiy tizim ma'lum bir siyosiy madaniyatga singib ketgan.

Gabriel Almond buni „har bir siyosiy tizim o'rnatilgan siyosiy harakatlarga yo'naltirishning o'ziga xos namunasi“ deb ta'riflaydi. Mariya Yevgeniya Vaskes Semadeni siyosiy madaniyatni „ayrimlar ham guruhlar, ham hokimiyatga bo'lgan munosabatlarini ifodalaydigan, siyosiy talablarini ishlab chiqadigan va ularni xavf ostiga qo'yadigan nutqlar va ramziy amaliyotlar yig'indisi“ deb ta'riflaydi.

Muayyan siyosiy madaniyatning chegaralari subyektiv o'ziga xoslikka asoslanadi. Bugungi kunda bunday o'ziga xoslikning eng keng tarqalgan shakli milliy o'ziga xoslikdir va shuning uchun milliy davlatlar siyosiy madaniyatlarning odatiy chegaralarini belgilaydilar. Ijtimoiy-madaniy tizim, o'z navbatida, umumiy qadriyatlarni aks ettiruvchi umumiy ramzlar va marosimlar orqali siyosiy madaniyatga ma'no beradi. Bu fuqarolik diniga aylanishi mumkin. Qadriyatlarning o'zi ko'proq tenglikka asoslangan bo'lishi mumkin va siyosiy ishtirok etish uchun chegaralarni belgilaydi va shu bilan qonuniylik uchun asos yaratadi. Ular sotsializatsiya orqali uzatiladi va jamoaviy yoki milliy xotirani tashkil etuvchi umumiy tarixiy tajribalar orqali shakllanadi. Ziyolilar siyosiy madaniyatni ijtimoiy sohada siyosiy nutqlar orqali izohlashda davom etadilar. Darhaqiqat, elita siyosiy madaniyati ommaviy darajadan ko'ra ko'proq oqibatlariga olib keladi.

Turkumlash asosida siyosiy madaniyatni quyidagi turlarga ajratiladi:

Siyosat subyektiga ko'ra: umuminsoniy siyosiy madaniyati;

xalq, etnos va sivilizatsiyasiga ko'ra siyosiy madaniyati;

milliy, mintaqaviy siyosiy madaniyat;

ijtimoiy tabaqa (ishchilar, dehqonlar, elita, byurokratiya, ziyolilar, rahbarlar) siyosiy madaniyati;

jins va yosh bilan bog'liq siyosiy madaniyat;

ijtimoiy-demografik, kasbiy, diniy va boshqa guruhlar siyosiy madaniyati; Siyosiy jarayon sohalariga ko'ra:

hokimiyat, boshqaruv siyosiy madaniyati;

siyosiy ishtirok etish madaniyati;

siyosiy muxolifat siyosiy madaniyati;

Hokimiyatni amalga oshirish shakllari va usullariga ko'ra:

demokratik siyosiy madaniyati;

avtoritar siyosiy madaniyati;

totalitar siyosiy madaniyati; siyosiy tizimdagi o'rniga ko'ra;

Siyosiy madaniyat tushunchasi qachon paydo bo'lgan, uning mohiyati nimalarda o'zining aniqroq ifodasini topadi? Insonlarning bevosita ma'naviy hayoti, qadriyatlarini, dunyoqarashi, urf-odatlarini bilan bog'liq holda namoyon bo'luvchi siyosiy hodisa bo'lgan siyosiy madaniyat siyosatning o'zi kabi uzoq tarixga egadir. Siyosiy madaniyat tushunchasi u yoki bu tarzda qadimgi mutafakkirlar tomonidan xam ma'lum darajada talqin qilingan. Siyosat olamining buyuk donishmandlari bo'lmish Konfutsiy, Arastu, Aflotun, Abu Nasr Farobiy, Yusuf Xos Xojib, Makiavelli va boshqalarni bunga misol qilib keltirish mumkin. «Siyosiy madaniyat» terminining o'zi esa ancha keyinroq paydo bo'ldi. Uni ilmiy muomalaga XVIII-asrda nemis faylasufi va ma'rifatparvari I.Gerder olib kirgan degan qarash mavjud. Empirik asosga ega bo'lgan siyosiy madaniyat to'g'risidagi ilmiy kontseptsiyalar esa g'arbda XX asrning o'rtalariga kelibgina shakllana boshladi. Bunda yirik xalqaro tadqiqotchilar bo'lgan G.Almond, X.Fayer, S.Verba, A.Lipset, M.Dyuverje, U.Razenbaum, G.Pauell, L.Pay kabilarning hissalarini bor. Masalan, hozirgi zamon politologiyasida «siyosiy madaniyat» tushunchasini ishlatgan Amerikalik nazariyotchi X.Fayerning 1956 yilda bosilib chiqqan «Evropaning buyuk davlatlari boshqaruv tizimi» nomli kitobi siyosiy madaniyatning mohiyatini anglash yo'lida qo'yilgan muxim qadamlardan bo'lgan bo'lsa, undan sal keyinroq G.Almond va S.Verba besh mamlakat AQSh, Buyuk Britaniya, Germaniya, Meksika va Italiya siyosiy jarayonlarini tadqiq qilish asosida o'zlarining «Fuqarolik madaniyati» (1963) nomli maktabni e'lon qildi. L.Pay bilan S.Verba o'nta mamlakat jamiyati siyosiy madaniyatini o'rganishi asosida «Siyosiy madaniyat va siyosiy tadqiqot» (1965) nomli asarini chop ettirdilar. Bu ilmiy ish siyosiy madaniyatning hozirgi zamon kontseptsiyasining shakllanishiga muxim turtki bo'ldi xamda siyosiy madaniyat nazariyasining kelajakdagi taraqqiyotiga ma'lum darajada zamin tayyorlab berdi. Siyosiy madaniyat tushunchasini talqin qilishda turlicha yondoshuvlar mavjud. Bu tabiiy hol albatta, lekin ularning barchasini bir-biriga bog'lab turuvchi umumiy jihat xam mavjud. Bu siyosiy madaniyatning jamiyat siyosiy-ijtimoiy jamiyatlari, siyosiy institutlari bilan bevosita uzviyligi, unga bo'lgan munosabat holatidir. Siyosiy ong «ijtimoiy-siyosiy ong» va oddiy (kundalik) ong daraja va shakliga ham ajraladi. Ijtimoiy-siyosiy ong- bu rasmiy siyosatda ishlab chiqiladigan, asoslanadigan, amalga oshiriladigan va siyosiy munosabatlar tartibiga solinadigan siyosiy ong darajasidir. Uning tashuvchilari davlat, siyosiy institutlardir. Bu institutlar siyosiy munosabatlarni turli qonun loyixalari, dasturlar, qarorlar, konstitutsiya va ularning moddalariga tuzatishlar va boshqalarni ishlab chiqish, qabul qilish, hayotda tadbiiq etish yo'li bilan tartibga soladi. Bu ong darajasining eng muhim belgisi- turli siyosiy kuchlarning umumiy manfaatlarini

ifoda etishga intilishidir. Bu darajada mavjud siyosiy tartiblar va boshqarish pirintsiplari izchillik, qat'iyatlilik bilan himoya qilinadi, jamoatchilik fikrining davlat institutlari olib borayotgan siyosatga moslashtirilishi sodir bo'ladi. Siyosiy ong uchun siyosiy voqelikni oqilona pragmatik uslubda idrok etish –hokimiyatni idora etish, ushlab turish jarayonida muvaffaqiyatga erishishni mo'ljallash ham xarakterli xususiyatdir. Kundalik siyosiy ong- bu ijtimoiy qatlam yoki kishilar guruxlarning kundalik hayotida bevosita paydo bo'ladigan siyosiy hayot to'g'risidagi ilk, sodda tassavurlar yig'indisi. U mazmuniga ko'ra ko'p jixatdan empirik ongga o'xshashdir. Lekin, kundalik ong empirik ongdan farq qiladi. U muayyan g'oyaviy va nazariy elementlarga ega. Kundalik ongga ravshan ko'zga tashlanadigan sotsial-ruhiy belgilar: ziddiyatlikka, o'zgaruvchanlik, tizimga ko'rmaganlik, hissiyot, kayfiyat, ehtiroslar xosdir. Bu unga o'ziga xos dinamiklik (tez o'zgaruvchanlik) siyosiy vaziyatning o'zgarishini aniq his etishni baxshida etadi. Shunday qilib, siyosiy ong murakkab va ko'p qirrali hodisa. U nafaqat siyosiy voqelikni aks ettiradi, balki uni ijod qiladi, o'zgartiradi. Siyosiy ong shakllanishining asosiy omillari Siyosiy ong insonda muayyaan ijtimoiysiyosiy, iqtisodiy, ma'naviy-ma'rifiy shart-sharoitlar, tarixiy tajriba, milliy qadriyatlar, siyosiy hayotni idrok etishga qaratilgan urf-odat, an'analar negizida shakllanadi. Bunday shart-sharoitlar mavjud bo'lmas ekan, insonda siyosiy ong shakllanmaydi. U siyosatning ob'ektligicha qolaveradi. Siyosiy ongning shakllanishi- murakkab jarayon. Bu avvalo, ijtimoiy-siyosiy shart-sharoitdemagratik siyosiy tartibotning mavjudligiga bog'liq. Jamiyatda bunday munosabatlar mavjud bo'lmasa, mustaxkamlanib borilmasa insonda demagratik, yuksak siyosiy ong shakllanmaydi. Jamiyatda mavjud bo'lgan avtoritar, ma'muriy-buyruqbozlik siyosiy tizimi esa inson siyosiy ongining shakllanishiga imkon bermaydi. Aksincha bu tizim insonni qullikka mahkum etadi, uni hokimiyatdan begonalashtiradi, biqiqlik, befarqligini tug'diradi, boshqaruv apparatlarini xalqdan uzoqlashtiradi.

Ma'lumki, istiqlolimiz sharofati bilan shakllanayotgan mamlakatimizning milliy istiqlol g'oyasi har bir insonga erkin fikrlash, o'z baxt-saodati, farovon kelajagi uchun erkin ijtimoiy faoliyat qilish imkoniyatlarini ochib bermoqda. Prezidentimizning bevosita sa'y-harakatlari bilan o'zining nazariy asosini topgan O'zbekiston jamiyatining g'oyasi xalqimizning manfaatlarini to'liq ravishda o'zida mujassamlashtirgan hayotiy manbadir. "Milliy siyosiy madaniyat, o'zligimizni, muqaddas an'alarimizni anglash tuyg'ularini, xalqimiz-ning ko'p asrlar davomida shakllangan ezgu orzularini, jamiyatimiz oldiga bugun qo'yilgan oliy maq-sad va vazifalarni qamrab oladi. Jamiyatimizning milliy siyosiy madaniyati o'zining mana shu xislatlari bilan odamlarimiz siyosiy madaniyatining shakllanishi va rivojlanishida asosiy ma'naviy oziq bo'lib xizmat qiladi. Chunki siyosiy madaniyat ayni paytda aniq maslak asosida, inson o'zi tayanib yashaydigan qadriyatlar asosida shakllanadi.